XALQ DEPUTATLARI KARMANA TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2021 - yil 31 - dekabr VI-42-120-5-71-K/21 Karmana tuman hokimligi

Karmana tumanining 2022 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining Budjet Kodeksining 27, 99-moddalari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24 – moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabrdagi “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Navoiy viloyati Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2021 yil 30 dekabrdagi “Navoiy viloyatining 2022 yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2022 yilgi tumanni rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi 1-ilovaga hamda 2022 yil uchun tuman maxalliy budjeti daromadlari prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman budjetidan 2022 yilgi hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarining umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. 2022 yilda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha qo‘llaniladigan stavkalar 5-ilovaga,

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i bo‘yicha qo‘llaniladigan stavkalar 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. 2022 yil uchun tuman budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert 39 901 715,0 ming.so‘m miqdorida tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosi hamda xarajatlar ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2022 yil uchun tumanning tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1200844,0 ming. so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman hokimligi zaxira jamg‘armalari mablag‘larini tumanning tuman budjetida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarini, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

Tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

8. 2022 yil uchun tuman budjetining shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 690 742 ming.so‘m miqdorida belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

9. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2022 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2022 yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka

tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i, tamaki va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

v) Karmana tuman mahalliy budjetiga quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar taqsimlanadi:

Qonunga muvofiq viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilingan 10 foiz miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlar (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (T.O‘rinov), tuman hokimligi moliya bo‘limi (U.Rustamov), Tuman soliq inspeksiyasi (A.Axmedov) va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetining prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

10. Tumanning tuman budjetida qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi qarorlari Xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tuman hokimligi taklifiga asosan birinchi navbatda ijtimoiy soha muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga yo‘naltirish maqsadida qabul qilinadi.

Tuman hokimligi tuman budjeti qo‘shimcha manbalarining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

Tuman hokimligi favqulodda vaziyatlarda va shunga o‘xshash kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rilishi talab etiladigan hollarda ishlatilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashlariga hisobot berish sharti bilan qo‘shimcha manbalarni yo‘naltirish bo‘yicha qarorlarni qabul qiladi.

11. Tuman hokimligi tomonidan budjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish uchun xalq deputatlari tuman Kengashiga ma’lumot kiritib borilsin.

12. Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

13. Mazkur qaror “Karmana ovozi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

14. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

15. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (T.O‘rinov) va xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya (S.Vafoyev) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman Kengashi raisi **F.Umarov**

Халқ депутатлари Кармана туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-42-120-5-71-K/21-сон қарорига
1-илова

Karmana tumanining 2022 yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	2022 yil uchun prognoz
1.	Yalpi ichki mahsulot, mlrd.so‘m	13 520
2.	Yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	3,7
3.	Ist’emol narxlari indeksi, dekabrda avvalgi yil dekabr oyiga nisbatan, foizda	10,0
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘sish sur’ati, foizda	21,0
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati, foizda	8,0
6.	Chakana tovar aylanmasining o‘sish sur’ati, foizda	7,0

Халқ депутатлари Кармана туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-42-120-5-71-K/21-сон қарорига
2-илова

Karmana tumanining tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI Daromad		**87 387 800,0**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
2	Aylanmadan soliq	
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	9 796 300,0
4	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	791 000,0
5	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
6	Aksiz solig‘i, jami	
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	38 434 500,0
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	4 862 000,0
9	Yuridik shaxslar yer solig‘i	
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	5 620 000,0
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	6 271 000,0
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	650 000,0
13	Davlat boji	
14	Jarimalar	
15	Ijara to‘lovi	
16	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	
17	Yig‘imlar	
18	Taqsimlanuvchi daromadlar	20 963 000
	shu jumladan:	
1	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	7 933 000
2	Tamaki maxsulotlariga aksiz solig‘i	8 511 000

3	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	4 519 000

Халқ депутатлари Кармана туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-42-120-5-71-K/21-сон қарорига
3-илова

2022 yil uchun Karmana tuman budjetidan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**127 289 515,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**127 289 515,0**
1	**Tuman xalq ta’limi bo‘limi**	**5 971 414,0**
	joriy xarajatlar	5 971 414,0
2	**Tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**5 365 624,0**
	joriy xarajatlar	5 365 624,0
3	**Tuman tibbiyot birlashmasi**	**59 307 517,0**
	joriy xarajatlar	59 307 517,0
4	**Tuman madaniyat bo‘limi**	**3 374 835,0**
	joriy xarajatlar	3 374 835,0
5	**Tuman jismoniy tarbiya va sport bo‘limi**	**3 163 681,0**
	joriy xarajatlar	3 163 681,0
6	**Tuman qishloq xo‘jalik bo‘limi**	**549 664,0**
	joriy xarajatlar	549 664,0
7	**Tuman irrigatsiya bo‘limi**	**1 511 921,0**
	joriy xarajatlar	1 511 921,0
8	**Tuman Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**997 404,0**
	joriy xarajatlar	997 404,0
9	**Tuman bandlikka ko‘maklashish markazi**	**810 778,0**
	joriy xarajatlar	810 778,0
10	**Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi**	**10 505 187,0**

	joriy xarajatlar	10 505 187,0
11	**Tuman moliya bo‘limi**	**978 712,0**
	joriy xarajatlar	**978 712,0**
	shu jumladan: saqlash xarajatlariga	978 712,0
12	**Tuman hokimligi**	**29 182 024,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**29 182 024,0**
	Shu jumladan: saqlash xarajatlari	4 356 753,0
	Xalq qabulxonasini saqlash xarajatlari	122 887,0
	Hokimliklarning zahira jamg‘armalari	1 200 844,0
	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	16 327 453,0
	Hokimlik ijtimoiy moslashish markazi bo‘limlari	37 570,0
	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	932 349,0
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	6 004 222,0
	Tuman Xalq deputatlari Kengashi kotibiyati	199 946,0
13	**Tuman fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi**	**418 930,0**
	joriy xarajatlar	418 930,0
14	**Tuman Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi**	**5 151 824,0**
	joriy xarajatlar	**5 151 824,0**
	Shu jumladan: saqlash xarajatlari	476 355,0
	Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash	4 675 469,0

Халқ депутатлари Кармана туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-42-120-5-71-K/21-сон қарорига
4-илова

Umumdavlat soliqlaridan tuman mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

T/R	Hudud nomi	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq*	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq
1	Karmana tumani	50	10	100	100

* Karmana tumani hududida joylashgan elektr stansiyasi tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq viloyat budjetiga to‘liq o‘tkaziladi.

Халқ депутатлари Кармана туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-42-120-5-71-K/21-сон қарорига
5-илова

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	MFY nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2021 yil uchun (1 ga uchun)
1	Kumushkon	0,70	22 330 000,0
2	Do‘rman	1,00	31 900 000,0
3	Xoncharbog‘	1,00	31 900 000,0
4	Qaxramon	1,00	31 900 000,0
5	Yangiobod	1,00	31 900 000,0
6	Azamat	1,00	31 900 000,0
7	Ayronchi	1,00	31 900 000,0
8	Uyrot	1,00	31 900 000,0
9	Varq	1,00	31 900 000,0
10	Farxod	1,00	31 900 000,0
11	Xo‘ja Xisrav	1,10	35 090 000,0
12	Dehqon	1,10	35 090 000,0
13	Narpay	1,00	31 900 000,0
14	Paxtaobod	1,00	31 900 000,0
15	Kalovat	1,00	31 900 000,0
16	O‘zbekiston	1,00	31 900 000,0
17	Talqoq	1,00	31 900 000,0
18	Kattamachit	1,00	31 900 000,0
19	Arg‘un	1,10	35 090 000,0
20	Yangiariq	1,10	35 090 000,0
21	Beshkent	1,10	35 090 000,0
22	Bog‘ishamol	0,70	22 330 000,0
23	Mir Said Bahrom	1,10	35 090 000,0
24	Gulobod	1,10	35 090 000,0
25	Ko‘xna qo‘rg‘on	1,00	31 900 000,0
26	Navro‘z	1,10	35 090 000,0
27	Alisher Navoiy	1,00	31 900 000,0
28	Ziyokor	1,10	35 090 000,0
29	Do‘stlik	0,80	25 520 000,0
30	Hazora	0,80	25 520 000,0
31	Sardoba	0,80	25 520 000,0
32	Degaron	1,00	31 900 000,0
33	Malik	0,70	22 330 000,0
34	Pahlavon	1,00	31 900 000,0
35	Shibzon	1,10	35 090 000,0
36	Jaloyir	1,10	35 090 000,0
37	Allon	1,10	35 090 000,0

38	Arabxona	1,10	35 090 000,0
39	Nurafshon	1,10	35 090 000,0

Халқ депутатлари Кармана туман
Кенгашининг
2021 йил 31 декабрдаги
VI-42-120-5-71-K/21-сон қарорига
6-илова

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

so‘mda

T/r	MFY nomi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2021 yil uchun (1 kv. uchun)
1	Kumushkon	0,70	182,0
2	Do‘rman	1,00	260,0
3	Xoncharbog‘	1,00	260,0
4	Qaxramon	1,00	260,0
5	Yangiobod	1,00	260,0
6	Azamat	1,00	260,0
7	Ayronchi	1,00	260,0
8	Uyrot	1,00	260,0
9	Varq	1,00	260,0
10	Farxod	1,00	260,0
11	Xo‘ja Xisrav	1,00	260,0
12	Dehqon	1,00	260,0
13	Narpay	1,00	260,0
14	Paxtaobod	1,00	260,0
15	Kalovat	1,00	260,0
16	O‘zbekiston	1,00	260,0
17	Talqoq	1,00	260,0
18	Kattamachit	1,00	260,0
19	Arg‘un	1,00	260,0
20	Yangiariq	1,00	260,0
21	Beshkent	1,00	260,0
22	Bog‘ishamol	0,70	182,0
23	Mir Said Bahrom	1,00	260,0
24	Gulobod	1,00	260,0
25	Ko‘xna qo‘rg‘on	1,00	260,0
26	Navro‘z	1,00	260,0
27	Alisher Navoiy	1,00	260,0
28	Ziyokor	1,00	260,0
29	Do‘stlik	0,80	208,0
30	Hazora	0,80	208,0
31	Sardoba	0,80	208,0
32	Degaron	1,00	260,0
33	Malik	0,70	182,0
34	Pahlavon	1,00	260,0
35	Shibzon	1,00	260,0
36	Jaloyir	1,00	260,0

37	Allon	1,00	260,0
38	Arabxona	1,00	260,0
39	Nurafshon	1,00	260,0